



FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING NUTQDAGI AHAMIYATI (ABDULLA QAHHOR VA SAID AHMAD ASARLARI MISOLIDA)

Jumayeva Diyona Bahodir qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nutqning obrazlilik va emotSIONAL-ekspressivligini ta'minlovchi frazeologik birliklarning buyuk ijodkor, hikoyanavis adiblarimiz Abdulla Qahhor va Said Ahmad asarlarida qo'llanilishi, hamda nutqdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birlik, frazema, Abdulla Qahhor, tepa sochi tikka bo'ldi, Joni halqumiga keldi, tishini tishiga qo'ymoq, haddidan oshmoq.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается использование фразеологизмов, обеспечивающих образность и эмоционально-выразительность речи, в произведениях Абдуллы Каххора и Саида Ахмада и их значение в речи.

Ключевые слова: Фразеологизм, фраза, Абдулла Каххор, волосы на макушке встали дыбом, Джонни подступил к горлу, вцепиться в зубы, превысить лимит.

ABSTRACT

This article discusses the use of phraseological units that provide imagery and emotional-expressiveness of speech in the works of Abdulla Qahhor and Said Ahmad and their importance in speech.

Key words: Phraseological unit, phrase, Abdulla Qahhor, the top hair stood on end, Johny came to his throat, to put one's teeth in one's teeth.

Frazema yoki frazeologik birliklar til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro



semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi, shunga ko‘ra tuzma segment birlik deyiladi. Adabiyotlarda ushbu til birligi *frazeologizm*, *frazeologik birlik* kabi terminlar bilan ataladi; *leksema*, *morfema* terminlariga monand ravishda *frazema* deb atash ma’qul. Frazemalar o‘rganiladigan soha *frazeologiya* deb yuritiladi¹.

So‘z qo‘llash mahoratining zakiy ustasi, XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Abdulla Qahhor o‘z asarlari obrazlari nutqida, ularning xarakteriga mos va xos ravishda frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalangan. Quyida ulardan na’munalar ko‘rib chiqamiz.

*Sakkizinch kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo‘ldi*².

– *Ha, muncha!.. Turtmasdan gapira bering... Tikib qo‘yarman, muncha qistov*

*Turobjonning tepa sochi tikka bo‘ldi*³.

Chol va Kampirning bisotida bor birdan bir boyligi ho‘kizining o‘g‘irlanishi voqeasi ortida o‘sha davr amaldorlarining kirdikorlari ko‘rsatib berilgan "O‘g‘ri" hikoyasidan olingan birinchi jumlada Aminga nisbatan, Ikkinchi jumlada esa Xotiniga ochlik zamonda anor olib bera olmagan "Anor" hikoyasi qahramoni Turobjonga nisbatan *tepa sochi tikka bo‘ldi* frazemasi qo‘llangan. *Bir lahzada g‘azablanmoq* ma’nosiga teng bo‘lgan bu turg‘un birikmadan so‘z ustasi buyuk adib Abdulla Qahhor ayni o‘rnida foydalangan.

*Jonim halqumimga keldi. Lekin o‘zimni bosdim. Shu atrofdagi hamma ko‘cha va tor ko‘chalarni kezib chiqdik*⁴.

¹ Sh.Rahmatullayev.Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. "Universitet" nashriyoti.2006.476 bet,420-bet.

² <https://tafakkur.net/o'g'ri/abdulla-qahhor.uz>

³ <https://tafakkur.net/anor/abdulla-qahhor.uz>

⁴ <https://tafakkur.net/dumli-odamlar/abdulla-qahhor.uz>



Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Dumli odamlar" hikoyasi qahramoniga nisbatan *o'lar holatga yetmoq* ma'nosiga teng bo'lgan ***Joni halqumiga kelmoq*** iborasidan foydalanilgan.

Adib "O'tmishdan ertaklar" qissasida frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalangan.

"Kelgindi, kelgindi" degan gapni Olim buvadan eshitganimda buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan ekanman, cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi⁵.

Boshidan kirib tovonidan chiqmoq frazemasi ruhiga chuqur tasir qildi ma'nosiga tengdir.

Uyda tovush chiqarmaslik uchun Marg'uba tishini tishiga qo'ygan sayin Javlon haddidan oshaveradi⁶.

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" hikoyasidan olingan ushbu gapda *tishini tishiga qo'ymoq* iborasi birgina *chidamoq* so'ziga, ***haddidan oshmoq*** iborasi esa *o'ziga ortiqcha erk bermoq* birikmasiga tengdir.

Salimjon yo'lda biroz hovuridan tushganday bo'lgan edi, uyga kelib yana jazavasi qo'zidi⁷.

Berilgan gapda o'zaro bir-biriga antonim bo'lgan iboralardan foydalanilgan. Hovuridan tushmoq frazemasi achchiqlanishdan to'xtamoq ma'nosini, jazavasi qo'zimoq iborasi esa qattiq jahli chiqmoq ma'nosini bildiradi.

To'xtabuvi yugurganicha Nazira buvinikiga chiqdi. Nazira buvi Hali uxlamagan ekan.

-- Hoy, Nazira buvi shu bo'ladigan ishmi yo raisning qo'ynini Puch yong'oqqa to'ldirib jo'nattikmi⁸?

⁵A.Qahhor.O'tmishdan ertaklar.T.:adabiyot va san'at nashriyoti.1988.114 bet,11-bet

⁶A.Qahhor.Muhabbat.T.:Yangi asr avlod.1989.248 bet, 112-bet

⁷A.Qahhor.Muhabbat.T.:Yangi asr avlod.1989.248 bet, 165-bet



"Kampirlar sim qoqdi" asaridan olingan ushbu parchada ***qo‘ynini Puch yong‘oqqa to‘ldirmoq*** iborasidan foydalanilgan bo‘lib, bu iboraning ma’nosи ***yolg‘on vadalar bilan aldamoq*** birikmasiga tengdir.

Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinja ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi⁹.

Agar Muhayyo Anvarga ko‘ngil qo‘ysa, boshini osmonga yetkazgan bo‘ladi¹⁰.

Ushbu gapda ikkita frazeologik birlikni ko‘rishimiz mumkin, albatta bu iboralar ham yuqoridagilari singari yozuvchi mahoratini ko‘rsatib turibdi. Abdulla Qahhor sevmoq so‘zini ***ko‘ngil qo‘ymoq*** iborasi orqali ifodalab xalqimizga xos bo‘lgan ibo-hayoni ham ko‘rsatib bergen. Adib xursand so‘zining o‘rnida ***boshi osmonga yetmoq*** iborasini qo‘llab ma’noni yanada kuchaytirgan.

Yuqoridagi misollar orqali Abdulla Qahhorning so‘z qo‘llash mahoratining ustasi ekanligini ko‘rib chiqdik. Buyuk adibimiz bulardan tashqari yana ko‘plab asarlarida ham frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalangan.

Kampir qo‘ni-qo‘shnilarnikiga ham chiqmaydi. Uyda o‘tiraverib qon bo‘lib ketadi¹¹.

Yumoristik hikoyalar ustasi, O‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Said Ahmadning "Qorako‘z Majnun" hikoyasidan olingan ushbu parchada o‘g‘lini kutaverib ko‘zлari to‘rt bo‘lgan Saodat ayaga nisabatan qon bo‘lib ketdi frazemasidan foydalangan.

Raisimiz u yoqqa borsam u yoqqa, bu yoqqa borsam bu yoqqa ergashadi. Bechora meni yer-ko‘kka ishonmaydi¹².

⁸ A.Qahhor.Kampirlar sim qoqdi.T.: Adabiyot va san'at nashriyoti.1988.256 bet. 109-bet

⁹ <https://tafakkur.net/anor/abdulla-qahhor.uz>

¹⁰ A.Qahhor.Muhabbat.T.:Yangi asr avlod.1989.248 bet, 112-bet

¹¹ <https://tafakkur.net/Qorako‘z-Majnun/said-ahmad.uz>



"Sobiq" hikoyasidan olingan ushbu parchada yer-ko‘kka ishonmaydi iborasidan foydalanilgan. Ushbu ibora o‘ta darajada ardoqlamoq, parvona bo‘moq ma’nosini bildiradi.

Borsam, rais oyog‘i kuygan tovuqday bezovtalanib, kutib turgan ekan¹³.

Oyog‘i kuygan tovuqday- bezovta.

- *Qurbanboyingiz yaxshi odam ekan, - dedi xotini Tillayev uyga kelganda, -bechora jonini fido qivoraman deydi-ya¹⁴.*

Said Ahmadning satirik hikoyalaridan biri bo‘lgan "Qoplom" asaridan olingan ushbu gapda Qurbanboyning ikkyuzlamachiliginin Tillayevning xotini bilmagan holda **Jonini qurban qilish** deya nomlaydi.

Bolasi tushmagur-ey, qo‘shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o‘tiribdi-ya! Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi¹⁵.

Ushbu parchada ikkita frazeologik birlikni ko‘rishimiz mumkin. **Birovga so‘z bermaydigan** iborasi *boshqalarga itoat qilmaydigan*, **o‘z bilganicha ish tutadigan** ma’nosini, **shoxi sindi** iborasi esa *bosh ko‘tarolmay qoldi* ma’nosini bildiradi.

1970- yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi...¹⁶

Saodat ayaning o‘g‘li Bo‘rixon ota-bobolarining dini bo‘lgan islomni tark etib kofirlikni tanlaganligini adib dindan chiqish deya nomlaydi.

Usta Mahkamning kichik qizi Inobat mahmadonagina chiqqan. Kelin ayalari ham, opalari ham undan zirillab turishadi. Shundoq gaplarni topib gapiradiki, naq jon-joningdan o‘tib ketadi¹⁷.

¹² <https://tafakkur.net/sobiq/said-ahmad.uz>

¹³ <https://tafakkur.net/sobiq/said-ahmad.uz>

¹⁴ <https://tafakkur.net/qoplom/said-ahmad.uz>

¹⁵ https://tafakkur.net/Qorako_z-Majnun/said-ahmad.uz

¹⁶ https://tafakkur.net/Qorako_z-Majnun/said-ahmad.uz

¹⁷ <https://tafakkur.net/kelinlar-qozgoloni/said-ahmad.uz>



Said Ahmadni butun dunyoga tanitgan, yurtimiz televedeniyalarida hali-hanuzgacha namoyish qilib turiladigan "Kelinlar qo‘zg‘oloni" spektakilining boshlanmasida adib bir necha frazemani birdaniga mahorat bilan qo‘llagan. Bu esa adibning so‘z ustasi ekanligidan darak beradi. Quyida ularning ma'nosi bilan tanishamiz:

Zirillab turmoq- qo ‘rqmoq;

Gaplarni topib gapiradigan- so ‘zga chechan;

Jon-joningdan o‘tib ketadi- jismiga, ruhiga chuqur ta'sir qiladi.

Biz o‘qiydigan har qaysi hikoyadan tortib toki yirik romanlargacha barchasida iboralar uchraydi. O‘quvchilarning nutqiy salohiyati yaxshi bo‘lmasa ular asar ta’sirchanligini his eta olmaydilar. O‘quvchi nutqiy tafakkurining shakllanishi va uning intellektual salohiyati oshishida frazeologik birliklar ustida ishlash juda qo‘l keladi. Bunda o‘qituvchi dastlab frazeologik birliklarning aniq talqinini keltiradi, so‘ng tilshunoslik va mantiqiy nuqtayi nazardan ularning mazmunini tushuntirib, o‘quvchilarni aqliy faoliyat yuritishga undaydi. Frazeologik birliklardan foydalanish nutqning obrazlilik va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda har bir pedagog o‘quvchilarning nutqiy salohiyatini oshirish va so‘z zaxirasini kengaytirish uchun frazeologik birliklardan foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Rahmatullayev.Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. "Universitet" nashriyoti.2006.476 bet.
2. A.Qahhor. O‘tmishdan ertaklar.T.:adabiyot va san’at nashriyoti.1988.114 bet.
3. Qahhor.Muhabbat.T.:Yangi asr avlodi.1989.248 bet.
4. A.Qahhor.Kampirlar sim qoqdi.T.: Adabiyot va san'at nashriyoti.1988.256 bet.



5. <https://tafakkur.net/o‘g‘ri/abdulla-qahhor.uz>
6. <https://tafakkur.net/anor/abdulla-qahhor.uz>
7. <https://tafakkur.net/dumli-odamlar/abdulla-qahhor.uz>
8. <https://tafakkur.net/Qorako‘z-Majnun/said-ahmad.uz>
9. <https://tafakkur.net/sobiq/said-ahmad.uz>
10. <https://tafakkur.net/kelinlar-qozgoloni/said-ahmad.uz>